

**AN'ANAVIY DEHQONCHILIK TARIXI VA DEHQONCHILIK XO'JALIGI BILAN
BOG'LIQ MAROSIMLAR****To'rayev Anvar Ismoilovich**

Osiyo xalqaro universiteti, Tarix va filologiya kafedrasi katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15257751>

Annotatsiya. O'zbek xalqi asrlar davomida o'zining mehnatkash xalq ekanligi bilan shuhrat qozonib kelgan xalqlardan biri bo'lib hisoblanadi. Davrlar mobaynida mehnat faoliyatida shunday o'zgarishlar sodir bo'lganki, aholining ish faoliyati bevosita diniy udumlar bilan omixtalashib mehnat bilan bog'liq urf-odatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Maqolada dehqonchilik xo'jaligi, dalalarda ish boshlanishi, yerga ilk bor urug' qadash munosabati bilan maxsus marosimlar uyushtirish odati shakllanib, davrlar o'tishi bilan keng ommalashib borish bilan bo'liq ma'lumotlar manbalar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, oziq-ovqat, an'ana, urf -odat, ziroatchilik, Zam'onbobo, Zarafshon, Moxondaryo, Gujayli, ovchilik o'yinlari, Poykand, "Qovun sayli", "Shamol momo", "Navro'z", "Yig'in", "Yoshlarni paxtakorlar safiga qabul qilish marosimi", "Oq oltin karvoni", "Birinchi gul", "Moshoba bayrami".

**HISTORY OF TRADITIONAL FARMING AND CEREMONIES RELATED TO
FARMING**

Abstract. The Uzbek people are one of the nations that have been famous for their hardworking people for centuries. Over time, such changes have occurred in labor activity that the work of the population directly mixed with religious customs, creating the basis for the emergence of labor-related customs. The article provides information on the formation and widespread popularity of the tradition of organizing special ceremonies on the occasion of farming, the beginning of work in the fields, and the first planting of seeds in the ground.

Keywords: Central Asia, food, traditions, customs, agriculture, Zam'onbobo, Zarafshon, Mokhondaryo, Gujayli, hunting games, Poykand, "Melon Festival", "Shamol Momo", "Navruz", "Yig'in", "Ceremony of accepting young people into the ranks of cotton farmers", "White Gold Caravan", "First Flower", "Moshoba Festival".

**ТРАДИЦИОННАЯ ИСТОРИЯ ЗЕМЛЕДЕЛИЯ И ЦЕРЕМОНИИ, СВЯЗАННЫЕ С
ЗЕМЛЕДЕЛИЕМ**

Аннотация. Узбекский народ — один из народов, который на протяжении веков славился своим трудолюбием. Со временем в трудовой деятельности произошли такие изменения, что трудовая деятельность населения напрямую переплелась с религиозными обрядами, создав основу для возникновения трудовых обычаяев.

В статье на основе источников приводятся сведения о формировании и широком распространении традиции организации специальных обрядов, посвященных началу земледелия, полевых работ и первой посадке семян в землю.

Ключевые слова: Центральная Азия, еда, традиции, обычаи, сельское хозяйство, Замонбабо, Зарафшон, Мохондаръё, Гуджайли, охотничьи игры, Пойканд, «Праздник дыни», «Шамол момо», «Наэруз», «Йигин», «Церемония принятия молодежи в ряды хлопкоробов», «Караван белого золота», «Первый цветок», «Праздник Машоба».

KIRISH

Hozirgi kunda dehqonchilik yurtimizning ilg'or soha tarmoqlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ushbu xo'jalik faoliyati bilan O'rta Osiyo aholisining talaygina qismi qadim-qadimdan buyon shug'ullanib kelishmoqda.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, ibridoiy davr odamlarining ilk mashg'uloti termachilik bo'lgan. Chunki, insonlar tabiatda bor ne'matlarni terib olib iste'mol qilishgan. Bu davr kishilari dov-daraxtlarning to'kilgan mevalari, o'simliklarning donlarini terish bilan mashg'ul bo'lishi bu sohaga oid odat, o'yin-musobaqa, bazm-ziyofat, marosimlarni vujudga keltirgan. Qariyalar yosh bolalarga meva terishni o'rgatishga harakat qilishgan. Chunki, qariyalarga daraxtni shoxlarida turib, meva terish oson bo'limgan. Bolalarda esa bunday serharakat ishga moyillik bo'lgan. Bundan foydalangan qariyalar bolalarga meva terishni o'yin sifatida o'rgatishgan va shu tarzda ularni mehnatga tayyorlashgan. Keyinchalik meva terish mashq emas, balki maxsus o'yin-musobaqa sifatida ham tashkil qilingan[9,23]. Yashash uchun kurash jarayonida odamlar qanchalik aql-zakovatni ishlatib mehnat qilishsa, qiyinchiliklar davomida orttirgan tajribalaridan to'g'ri xulosa chiqarib foydalanishsa, shuncha ko'p muvaffaqiyatlarga erishishgan. Aksincha mehnat qilmay, tajriba orttirmaganlar oziq-ovqatsiz och qolib ketishgan. Insonlar yegulik sabab ham mehnat qilishga majbur bo'lishgan.

Gerodot massaagetlarning terimchilik davridan qolgan o'ziga xos bir marosimi haqida quyidagicha yozadi: "Ular ba'zi daraxtlarning mevalarini bir joyga to'p-to'p qilib uyishgan. So'ng gulxan yoqib, uning atrofiga davra qurib o'tirishgan va o'sha mevalarni olovga tashlashgan.

Keyin olovda yonib turgan mevalarni hidlab, ularning hididan, xuddi ellinlar vinodan mast bo'lganiday kayf qilishgan. Olovga qancha ko'p meva tashlansa, ularning kayf qilishi shuncha kuchaygan. Shunda ular o'yinga tushib, qo'shiq ayta boshlashgan". Bu marosim massagetlarda o'yin, raqs, qo'shiq aytish san'ati ham rivojlangandan dalolat beradi[10,23]. Demak, an'ana, urf-odatlar yaqin o'tmishda vujudga kelgan emas, balki odamzod paydo bo'lgan davrlardan boshlab paydo bo'lib rivojlanib kelayotgan ijtimoiy hodisadir.

Xususan, Buxoro vohasida dehqonchilik madaniyatining paydo bo'lishida Zarafshon daryosining o'rni beqiyosdir. Chunki, daryo bo'ylab joylashgan bu vohaning o'zi, Zarafshonning ko'pgina mingyilliklar mobaynida oqizib kelgan loyqa yotqiziqlari tufayli vujudga kelgan. Uning toshqinlaridan hosil bo'lgan son-sanoqsiz irmoqlar, ko'l va ko'lmaklar esa voha tabiatining shakllanishi va uning o'zlashtirilib obod etilishida, dehqonchilik madaniyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Ziroatchilarining miloddan avvalgi 3 -2 mingilliklarga oid qadimiy maskanlaridan bo'lgan Zarafshon vohasidagi Zamonbobo ko'lining shimoliy sohilida qayd etilgan ibtidoiy dehqonlarning qabristoni hamda ko'ldan 500 m sharqda Gujaylining qurib qolgan qadimgi o'zani yoqasida kovlab ochilgan turar joy xarobalari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Zamonbobolik ibtidoiy dehqonlar qabristonini o'rganishda atoqli arxeolog Ya.G'ulomovning xizmatlari e'tiborga molik. Yodgorlik Ya.G'ulomov tarafidan 1951-1953-yillar davomida qazib o'rganildi[4,42]. Moxondaryo va Gujayli o'zanlarining yuqori qismi hamda Poykand atroflarida bir necha yillar davomida 30 dan ortiq qadimiy yodgorliklar arxeologlar olimlar tomonidan topib o'rganilgan. Bu yodgorliklar o'troq dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan aholiga mansub bo'lgani aniqlangan.

Zamonbobo manzilgohi haqida ko'pgina qarashlar mavjud. Misol uchun, A.Asqarovning takidlashicha, Zamonbobo madaniyati janubning o'troq dehqonchilik jamoalari ta'sirida shakllangan, u xonaki chorvachilik va motiga dehqonchiligi bilan kun kechirgan Buxoroning tub mahalliy aholisiga mansub bo'lib, dastavval u miloddan avvalgi II mingyillikning birinchi yarmi bilan sanalgan. Keyinchalik Surxondaryo vohasida qadimgi o'troq dehqonchilikning "Sopolli madaniyati"ga mansub qator osori atiqalarning topilib tadqiq etilishi bilan Zamonbobo madaniyati davriga birmuncha aniqlik kiritilib, hozirgi vaqtda u miloddan avvalgi II mingyillikning ikkinchi yarmi bilan belgilanmoqda[11,26].

Dehqonchilik Buxoro vohasining qadimdan shug'ullanib kelinadigan xo'jalik tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Bu faoliyat turi bilan bog'liq o'ziga xos mavsumiy an'ana va odatlar keng ko'lamda nishonlanib kelinmoqda. "Urug' qadash marosimi", "Qovun sayli", "Shamol momo", "Navro'z", "Yig'in", "Yoshlarni paxtakorlar safiga qabul qilish marosimi", "Oq oltin karvoni", "Birinchi gul", "Moshoba bayrami" kabi dehqonchilikka oid marosimlar bunga yaqqol misoldir.

Ma'lumki, dehqonlarning hayotida eng quvonchli voqeа hosilni yig'ish va yangi noz-ne'matlarni tatib ko'rish jarayoni bo'lgan. Bayram kayfiyati vujudga keltirgan ko'tarinki kayfiyatni harakatlarda aks ettirish maqsadida kishilar o'yinlar va marosimlarni tashkil etganlar. "Mehnat o'yinlari" yaxshi kayfiyat, ya'ni keng ma'noda aytganda, bayram holatini vujudga keltirgan.

Bronza davrlaridan boshlab o'troq dehqonchilikning vujudga kelishi va uning tez rivojlanishi natijasida bahorda mehnat mavsumiga kirish, kuzda hosilni yig'ib olish yakuniga bag'ishlangan bayramlar, ulardagi o'yinlar shu tariqa yuzaga kelib yillar o'tishi bilan an'anaga aylana boshlagan. Demak, "insonning birinchi kasbi" -ovchilik asosida "ovchilik o'yinlari" vujudga kelgan bo'lsa, uning dehqonchilikka o'tishi va u bilan shug'ullanishi natijasida "mehnat o'yinlari" shakllandi[2,10].

Umar Hayyom bergen ma'lumotlarga aosolanib, shuni aytish mumkinki, 26 asrdan buyon bahor faslda nishonlanib kelinayotgan Navro'z dehqonchilik bilan uzviy bog'liq bayram bo'lib hisoblanadi. Chunki, fasllar kelinchagi bo'lmish bahor kelishi bilan havolar isib, yerlarga gul va ko'chatlar o'tqazish uchun dehqonlar tomonidan dalalarni ekinga tayyorlash, agrotexnika va moddiy resurslarni taxt qilish, mahalliy o'g'it toplash, ariq va zovurlarni tozalash kabi ishlar bajariladi. Ayniqsa, ariq -zovurlarni tozalashga alohida ahamiyat qaratiladi. Bunday ishlarga yakka xo'jaliklarning qudrati yetmaganligidan butun qishloq yoki tuman aholisi kuchi va mehnati bilan hashar yordamida amalga oshirilgan. Dehqonchilik kasbiga oid eng muhim marosimlardan biri dalaga qo'sh qo'sh chiqarish bilan bog'liq "shoxmoylar" alohida quvonch va tantana bilan nishonlanadi. Odatda, dalaga qo'sh chiqarish kunini qishloqdagi tajribali dehqon (oqsoqol) belgilab bergen. Shoxmoylar dushanba, chorshanba va juma kunlaridan biriga to'g'ri kelishi lozim bo'lgan, chunki bu kunlar dehqonlar tasavvurida baxt, omad keltiriladigan kunlar hisoblangan. Asosan, qo'sh chiqarish Navro'z kunlari boshlangan, ammo yerlar pishib yetishsa, ob-havoga qarab Navro'zga qadar ham o'tkazilgan[7,101].

Bahor fasli kelishi bilan, dehqonlar mavsumiy ekin ishlariga sho'ng'ib ketishsa, bolalar bahoriy o'yinlarni o'ynash bilan ovora bo'lishar edi. Masalan, bahorda Buxoroda "Sayli guli surh", Toshkentda esa lola sayli marosimlarida ko'plab bolalar o'yinlari uchraydi, binafsha terish marosimi va u bilan bog'liq o'yinlar, Navro'zda yangi yil kirib kelishi bilan bog'liq o'yinlar, yomg'ir yog'ishi bilan bog'liq o'yinlar va hokazolar o'tkaziladi[1,18].

Qadim zamonlardan beri navro'zi olam bahor va dehqonchilik bayrami sifatida tantana qilinib kelingan. Ajdodlarimizning yangi mehnat yili ham navro'zdan, ya'ni yangi kundan boshlangan. An'anaga ko'ra, dehqon navro'zda yoki navro'z arafasidagi chorshanba kuni dalaga qo'sh chiqargan. Chunki chorshanba chosh, ya'ni baraka kuni, shu bois ekin - tekin ishlari o'sha kuni boshlansa, hosil mo'l bo'ladi deb ishonganlar. Qishloq ahli yig'ilishib, eng yaxshi ho'kizlardan bir juftini omochu bo'yinturug'i bilan dalaga olib chiqishardi. "Bu yil mo'l - ko'lchilikda yashaylik, serobchilik bo'lsin, oyog'ing tekkan joyga baraka bersin" -deb navro'zga atab pishirilgan bo'g'irsoq yog'i bilan ho'kizlarning shoxini moylashgan. Sumalak pishirish uchun undirilgan maysadan ozginasini ho'kizga yedirishgan. Qishloq keksalaridan biri Bobo Dehqon bo'lib, dalada birinchi qo'sh soladi.

Shu tariqa ko'klamga ekish ishlari boshlab yuboriladi. Navro'zda yerga ilk bor qo'sh solish va dehqonchilik boshlanishi haqida xilma - xil xalq qo'shiqlari yaratilgan. Kun bo'yи omochdan qo'li bo'shamagan dehqon bahor, mehnat va mo'l hosil haqida qo'shiq hirgoyi qilgan.

Ayniqsa, ilgarilari ko'klamgi ekish pallasi dehqonga qo'sh qanot bo'lgan ho'kizlariga bag'ishlangan satrlar g'oyat jozibali....[3,71].

Tarixiy adabiyotlarda keltirilishicha, xalqimizda qadimdan dalalarda ish boshlanishi, yerga ilk bor urug' qadash munosabati bilan maxsus marosimlar uyuştirish odati shakllanib, davrlar o'tishi bilan keng ommalashgan edi. Bizning davrimizga kelib, jamiyatdagi o'zgarishlar tufayli bu xalq odatlari ma'lum ma'noda o'z mavqeyini, tantanavorligini yo'qotgan bo'lsa-da, uning zaminida paxta yetishtiriladigan mintaqalarning ba'zi joylarida zamonaviy "urug' qadash" marosimi vujudga kelmoqda[5,255]. Hozirgi kunga kelib qadimgi amallar yangilanib, zamonavylashib bormoqda. Dehqon, paxtakorlar tomonidan yerga urug' qadash boshlanishi bilan, ular uchun mehnat mavsumi boshlanib ketadi. Madaniyat xodimlarining bu boradagi vazifasi ilk urug' qadash marosimini mehnat bayramiga aylantirib, ko'tarinki kayfiyatda nishonlashdan iboratdir.

Respublikamizning ilg'or jamoalarida "urug' qadash" ("chigit ekish") bayrami ko'pgina joylarda o'ziga xos qiziqrli uslubda tashkil etiladi[6,255]. Urug' qadash marosimining ko'tarinki kayfiyatda o'tkazilishiga sabab shundan iboratki, dehqon, traktorchilarni ekin ishlarini boshlashdan oldin yaxshi niyat va duolar ila boshlab, yangi hosil yili davomida yaxshi kayfiyatda o'tishiga yordam beradi.

Dehqonchilik ishlarini olib borishda ekinlarga o'g'itlar berish bilan birgalikda vaqtida sug'orish ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Qurg'oqchilik yillarida muhim marosimlardan biri yomg'ir chaqirish urf -odatlari ham qadimdan saqlanib kelgan. Lalmikor dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi uchun bahor hamda yozning ilk oylarida yomg'irga kata ehtiyoj seziladi.

O'zbeklar va boshqa O'rta Osiyo xalqlari tabiiy, ya'ni yomg'ir suvlari bilan sug'oriladigan ekinlarni lalmi (qayroqi) deb nomlagan. Bunday dehqonchilik yog'ingarchilik bo'lмагan oylarda xavf ostida qolgan. Shuning oldini olish maqsadida o'tkaziladigan maxsus marosimlardan "sust xotin", "suv xotin", "chala xotin" kabi yomg'ir chaqirish udumlari keng tarqalgan[8,102].

XULOSA

Qadim zamonlardan to yaqin 50 -60 yillargacha yomg'ir chaqiruvchi kishilar suvni asrash haqida ham o'rnakli so'zlar, qo'shiqlar aytishgan. Ular asosan ayollardan iborat edi. Qorako'l, Navoiy, G'ijduvon, Shofirkon tumanlarida yomg'ir chaqiruvchilar "qo'g'irchoq -bibi" ("zochak -bibi") yasashgan va uni ko'tarib, uyma -uy yurishgan hamda "Guldurmomo", "Sust xotin", "Suv xotin", degan qo'shiqlarni aytishgan. Uy egalari ularga bug'doy berishgan va bir ko'za yoki bir oftoba suvni ustlariga sepib yuborishgan.

Yomg'ir chaqiruvchi ayollar xonodon sohiblari bergan bug'doydan halisa(halim) pishirib, o'sha xonadondagilarga va xaloyiqqa tarqatishgan. Ularning tinimsiz mehnat va astoydil intilishlari albatta yomg'ir keltirar ekan.

REFERENCES

1. Atoev A, Salimov G'. Xalq milliy harakatli o'yinlari. "Buxoro". 2005. –B. 180.
2. Atoev A, Salimov G'. Xalq milliy xarakatli o'yinlari. "Buxoro". 2005. -B. 180.
3. Mirzayev T, Jo'rayev M.. Navro'z."Fan". 1992. -B.189.
4. To'rayev Halim. Buxoro tarixi. Buxoro.: Durdona nashriyoti, 2020. -B. 345.
5. Usmon Hosil. Odatnama. II qism. -T.: "O'zbekiston", 2018. – B. 279.
6. Usmon Hosil. Odatnama. II qism. -T.: "O'zbekiston", 2018. –B. 279.
7. Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти: Т.: "Ўқитувчи", 2003 – Б. 223.
8. Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти: Т.: "Ўқитувчи", 2003. –Б. 223.
9. Қорабоев Усмон. Ўзбек халқи байрамлариу -Т.: Шарқ, 2002. –Б. 198.
10. Қорабоев Усмон. Ўзбек халқи байрамлари- Т.: Шарқ, 2002. -Б. 198.
11. Мухаммаджонов А. Қадимги Бухоро. -Т.: "Фан" –Б. 48.
12. To'Rayev A. I. Buxoro vohasiga turkmanlarning ko'chishi //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 134-139.
13. To'rayev A. O 'ZBEKISTON HUDUDIDA QADIMGI DAVLAT VA DAVLAT MUASSASALARINING VUJUDGA KELISHI //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 1. – C. 723-729.
14. To'rayev A. O 'RTA OSIYODA AHAMONIYLAR DAVRI DAVLAT BOSHQARUVI //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 12. – C. 820-830.
15. To'rayev A. BUXORO VOHASI HUNARMANDLARINING KASBIY TARIXIDAGI URF-ODAT VA UDUMLARI //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 12. – C. 633-642.
16. To'rayev A. BUXORODAGI ME'MORIY OBIDALARNING QURILISHIDA SHARQ VA G'ARB AN'ANLARINING UYG'UNLIGI //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 11. – C. 842-849.
17. Ismoilovich T. A. Xorijiy Tadqiqotchilarining Asarlarida Buxoro Voha Aholisi Etnik Tarkibining Bayon Qilinishi //Miasto Przyszlosci. – 2024. – T. 52. – C. 455-459.
18. Ismoilovich T. A. ZARAFSHON VOHASI DEHQONCHILIGINING TARIXIY ILDIZLARI //Miasto Przyszlosci. – 2024. – T. 44. – C. 405-408.

19. Asror o'g'li A. A. PRINCE OF AFGHANISTAN ISAK KHAN ORIENTALIST DN IN THE INTERPRETATION OF LOGOPHET //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 82-85.
20. Asror o'g'li A. A. History of Afghanistan-Bukhara Relations in the Process of Incorporation of Bukhara Emirate into Russian Customs System //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 339-342.
21. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 39-46.
22. Ahmadov A. XX ASR BOSHLARIDA BUXORO VA AFG'ONISTON EMIGRATSIYASI VA REMIGRATSIYASI //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 1. – C. 842-845.
23. Ahmadov A. BUXORO AMIRLIGIDAGI AFG'ONLAR: HAYOTI VA FAOLIYATI XUSUSIDA //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 2. – C. 1304-1308.